

BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING QO'LLANILISHI

*Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani
46-maktab boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi
Qarshiyeva Dilafruz Uralovna*

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda qo'llaniladigan "ijodiy tasavvur" metodi haqida ma'lumotlar keltirilgan, hamda "ijodiy tasavvur" metodining afzalliklar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, "ijodiy tasavvur" metodi, innovastion texnologiyalar, "maqtanchoqlar kuni"

Abstract: this article provides information about the "creative imagination" method used in teaching elementary school students, and also talks about the benefits of the "creative imagination" method.

Key words: Pedagogical technology, "creative imagination" method, innovative technologies, "Pride Day"

Reja:

1. Boshlang'ich ta'limda o'qish darslarida innovastion texnologiyalardan foydalanish
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Pedagogik texnologiya – bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'z oldiga ta'lif shakllarini samaradorligini oshirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir. Zamnaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'lifni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir.

Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lif tizimini isloq qilishni yangi Davlat ta'lif standartlari asosida tashkil etishga qaratilgan. Hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lif jarayonida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarining pedagogik fikrlashida o'rinni ola boshlagan pedagogik texnologiyani dars jaaryonida qo'llashga oid tavsiyalar o'qituvchilar uchun juda zarur. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o'quvchilarining faolligini oshirishga mo'ljallangan: o'quvchilarni boshqalar fikrini eshitishi, tushunishi, hurmat qilishi, o'zgalar manfaatlari bilan hisoblashishi, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish. O'zining va boshqalarning "men"ligini sezish, his qilish, o'zini boshqarish, fikrini aniq, lo'nda va puxta bayon eta olish, ishlatalishga qaratilgan interfaol o'qitish usullari tez suratlar bilan rivojlanib ijobjiy samara bermoqda. O'qitishda foydalanib kelinayotgan interfaol metodlar o'quvchilar o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib o'quvchilarni harakatchanlikka boshlab ruxlantirdi, natijada o'quvchilar hamkorliik o'rgana boshladi. Har qanday interfaol metod to'g'ri va maqsadli qo'llanilganda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya ta'lif tizimining rastional yo'llarini ishlab chiqaruvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi asosiy mas'ul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborotni o'quvchilarga tez, aniq va tushunarli tarzda etkazib berishidan iborat. O'quvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe'l-atvori har xil bo'lishiga qaramay o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish lozim. Bunda o'quvchi asosiy harakatlanuvchi kuch bo'lib, o'qish, mutolaa qilish, chizma chizish, proektstiyalar formulalarini tushunib asboblarni ishlata olishi, bir-birlari bilan do'stona munosabatda bo'lib, oldilariga qo'yilgan muammolarni echishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ta'lif tizimida sodir bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlar o'quvchilarga yangi bilim, ko'nikma va malakalarini berish bilan bir qatorda yoshlarimizni o'ziga va boshqa insonlarga jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o'zgarishning vatanparvarlik g'oyalarini ongiga va qalbiga singdirishini ham ko'zda tutadi.

O'qituvchi pedagog o'z oldiga qo'yilgan murakkab mas'uliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish uchun hamda ta'lism-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi uchun quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak:

- zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna bilishi;
- dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini chuqur va keng nuqtai nazarda yangilashi;

--axborot ta'lism texnologiyalarini va o'qitish vositalarini ta'lism berishda tadbiq etish, internet tarmog'i to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi va undan o'z bilimini oshirishda foydalana olishi.

-- pedagogika mehnatining samaradorligini tahlil etish yo'llarini bilish va o'ziga o'zi baho bera olishi.

--oilaviy ta'lism-tarbiya muammolari bo'yicha tasavvurlarini rivojlantirishi.

--umuminsoniy hamda milliy madaniyat va qadriyatlar milliy g'oya va milliy mafkura iqtisodiy islohotlar mohiyatini tushunib olishi.

--dars jarayonida pedagogika texnologiyalaridan unumli foydalanish yo'llarini bilishi.

-- o'quvchilarning fikrlashlari va bir-birdari bilan fikr almashishlari hamda do'stona muhit yaratish uchun sharoit yaratishi.

--darsning samaradorligini oshirish uchun labaratoriya jihozlaridan foydalanish va mashg'ulotlar o'tkazishni o'zlashtirib olgan bo'lishi.

--texnik vositalar va o'quv vositalardan foydalanish yo'llarini bilishi bolalarning barkamol inson bo'lib etishishida o'zining izlanishlari, ijodkorligi, tashabbuskorligi hamda betinim mehnatlari orqali ta'lism-tarbiya berish kabilardir.

Yuqoridagi pedagogga qo'yiladigan zamon talablari mazmunli amalgaga oshirish uchun har bir o'qituvchi yangicha fikrashi, tafakkurini o'stirishi, pedagogik tehnologiyalari mustaqil o'rGANISHI, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ekanligini chuqur bilib olishi kerak. Yangi pedagogik tehnologiya nima va biz uni qanday tushunamiz? An'anaviy texnologiyadan farqli jihatlari nimada? Yangi pedagogik texnologiya darslarning an'anviy darslardan farqi shuki bu darsda o'quvchiga erkinlik

muhitini yaratib berib, unga o’z fikrini yorqin bayon etishga imkon yaratib berishdir. Bu imkoniyat qanday yaratilidi? O’quchiga hech qanday tazyiq o’tkazmasdan, uni shaxsiyatiga tegmasdan, savollar berish orqali do’stona munosabatdagi o’quv muhiti yaratiladi. O’quvchini ishlatish deganda bir necha o’quvchiga mavzularni bo’lib berish orqali dars o’tish emas balki, hamma o’quvchilarni birgalikda ishlatilishni tushunamiz. O’quvchilarni birgalikda ishlatish uchun o’quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanamiz. Har bir dars bolaning qobiliyatining uchqunlarini alangalata boradigan kichik ixtiroday o’tishi zarur. Atrofdagi olam va o’zini anglashdagi kichik yutuqlar ham butun o’quv faoliyatini g’aroyib va maftunkor qiladi. Bolalar uchun sinfdoshlari oldida o’zini ko’rsata olish, nimalarga qodirligini isbotlay olish juda muhim qirra hisoblanadi. Buning uchun ularga imkoniyat yaratish zarur. Sinfingizda “maqtanchoqlar kuni”ni e’lon qiling. Unda har bir bola o’z ijodiy ko’nikmalarini va yutuqlarini oladi. Tavsiya etilgan ish uslublarini amaliyotda qo’llagan ota-onalar va bolalar ularning foydali tomonlarini sinfdan tashqari o’tkazilgan tadbirlar va ota-onalar majlislarida o’z tasdig’ini topishga yordam beradi. 1-sinflardagi mashg’ulotlarni tasavvur yordamida sirli bilimlar mamlakatiga tugamas sayohat tarzidada tashkil qilish mumkin. O’quvchilar dastlabki hayolot usullarini o’rganiladi va ertaklar yuzaga keladi. Bolalar ijodiyoti o’quv jarayoniga bog’liq ravishda borgan sari boshqariluvchan bo’lib boradi. O’quv yilining oxiriga kelib o’quvchilar mustaqil ravishda hikoya va ertak tuzish usullarini etarli darajada o’zlashtirgan bo’lishlari kerak hamda tizimlarning ichki tuzilishi bilan tanishib ularning bo’limlari v anima uchun xizmat qilishini o’rganish uchun dastlabki qadamlarni qo’yishi kerak. 2-sinfda o’quvchilar dars mavzusi bilan bog’liq tayanch so’z va atamalar ishtirokida kichi hikoya yoki ertak tuza olishi kerak. Bu davrda bolalar mustaqil ravishda tizimlarni toppish, ularning qanday bo’limlardan tuzilganligini, ularning qanday belgilarga ega ekanligini v anima uchun xizmat qilishini anglab yetmoqliklari kerak.

3-sinfda bolalar faoliyat muhiti turli-tuman bo’ladi. Bolalar darslikdagi mavzular asosida tuzishgan hikoya va ertaklarining yangi ertak kitobi shakllanadi. 3-sinf o’quvchilarining qiziqishlari ham turlicha bo’ladi, shuning uchun ham beradigan savollari turli sohalarda bo’lishi mumkin.

4-sinfda esa o'quvchilar bemalol erkin ravishda hikoya va ertaklar tuza oladi. Ular orasida maktab dasturiga mos ravishda "ertak kitobi" tuziladi. Ijodiy tasavvur rivojlantirish dasturi bizga o'quvchilarning dunyoqarashini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.A.Xoliqov "Pedagogik mahorat" darslik – T. "IQTISOD-MOLIYA" 2011
2. A.I.Sherbakov "Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum" Toshkent 1991
3. X.I.Ibragimov, Sh.A.Abdullayeva "Pedagogika nazariyasi" darslik – T. "fan va texnologiyalar" 2008
4. O'zbek pedagogika antologiyasi 1-jild
5. Yuldasheva, S. (2021). The Emergence of Libraries as a Hotbed of Spirituality and Enlightenment. International Journal of Culture and Modernity, 10, 43-51.
6. Bekmatova Dinara. "Yoshlar tarbiyasi-kun tartibidagi masala" Boshlang'ich ta'lim.-2021-y, 9-son.